

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAKNI IDROK ETISHNING DIDAKTIK TIZIMI

Ismatova Zarina Obidjon qizi
JDPU magistranti

ANNOTATSIYA

Ertaklar bilan o‘qitish bolajonlar uchun juda-juda qiziq bo‘ladi. Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta’minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutqni o‘z ichiga oladi. U mazmunliligi, mantiqliligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o‘zlashtirganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estetik, emotsiyonal jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Ertaklar, xalq og‘zaki ijodi, badiiy asar.

ABSTRACT

Teaching with fairy tales is very interesting for children. All of the child’s achievements in the acquisition of the language system include fluent speech, which is viewed as a meaningful, widespread thought that provides communication. It is distinguished by its content, logic and consistency. Fluent speech is an indicator of how well a child has mastered language, it reflects the child’s level of intellectual, aesthetic, emotional development.

Key words: Fairy tales, folklore, artistic work.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlanib kelayotgan davrda o‘quvchilarini Ona Vatanga sadoqatli, o‘z yurtini sevuvchi, sidqidildan xizmat qiluvchi yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Aynan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliylik ruhida tarbiyalash va ta’lim berish jarayonida ertaklarning o‘rni beqiyosdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek bolalalarni o‘qitishda ularning ta’lim va tarbiyasiga katta e’tibor berish lozim[1].

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagagi o‘quvchilarining badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ruhshunos olimlarning tekshirishlaridan ma’lum bo‘lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsiyonal-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o‘ziga yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo‘lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o‘z ichiga oladi.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o‘quvchilar o‘z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagil o‘quvchilarda chegaralangan bo‘ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko‘p ishlata dilar.

Qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so‘z boyliklari yetishmaydi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsiyal sifatlarini tasvirlovchi so‘zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi. Asardagi qahramonlaming xarakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir.

Biz bilamiz, ertaklar bolajonlar uchun juda qiziq bo‘ladi. Ertak kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqeа, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. “Ertak ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi.

Ertak mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagil o‘quvchilarni qahramonlaming xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqeа-hodisalar haqidagi ertaklar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni ertak bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda ertakni o‘qishga bag‘ishlangan ertak mazmunini ochish, lug‘at ustida ishslash, o‘qilgan matnni qayta ertaklash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Ertak mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So‘roqlardan ikki maqsadda: ertak mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqeа-hodisalar, xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Ertakda o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular ertak mazmunini tushuna olmaydilar. Ertakni o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziyl o‘rin egallaydi. Ertak o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar o‘yashi, o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad ertak bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta ‘sir etganini bilishdan iborat.

Shundan keyingina ertak sujeti, voqeanning yo‘nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o‘ziga tortadi. Lekin ertak janri ham hayotiyligi bilan o‘ziga

xos. Ertakda voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning harakteri, ulardag'i xususiyatlar bilan qiziqadilar.

Albatta biz so'zimiz so'ngida shunga iqror bo'ldik, ertak bilan dars o'tish juda muhimdir, bolajonlar qiziqib o'rganishiga imkon beradi. Boshlang'ich sinfda egallangan bilimni kelgusidagi bilimlar uchun poydevor deb atasak, noto'g'ri bo'lmaydi. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, qurilajak imorat ham shunchalik ko'p yil, balki asrlarga ham asqotadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchiga juda ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamон boshlang'ich sinf o'qituvchisi erkin fikrli, keng dunyoqarashli, izlanuvchan, intiluvchan, yangiliklarni tezda ilg'ab oluvchi va innovatsion texnologiyalardan boxabar bo'lishi lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz" –T.: "O'zbekiston" 2016-y -56-b.
2. I. Azimova, K. Mavlonova, S. Qur'onov, Sh. Tursunov 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" Toshkent-2021 43-52 bet
3. R. Safarova, M. Inoyatova 1-sinf "Alifbe" darsligi Toshkent-2021 14-bet
4. <https://www.ziyonet.uz> internet portalı